

MUSTAQILLIK DAVRIDA O‘ZBEK LUG‘ATSHUNOSLIGINING TARAQQIYOTI

Jo‘rayeva Nigora Baxtiyor qizi

O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti 1-bosqich doktoranti

nigoraimrona9420@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida lug‘atshunos olimlar tomonidan yaratilgan lug‘atlar hamda shu lug‘atlarning tuzilishi haqida qisqacha ma’lumotlar keltirilgan. Ularning o‘zbek leksikografiyasidagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: leksikografiya, lug‘at turlari, etimologiya, imlo lug‘ati, etimologik lug‘at, ta’limiy va o‘quv lug‘atlari.

Bugungi globallashuv davrida O‘zbekistonda davlat tilining ijtimoiy ahamiyatini oshirish, uni doimiy rivojlantirib borish, fuqarolarning o‘zbek tilidan ham ona tili, ham davlat tili sifatida foydalanish doiralarini kengaytirishdek muammolar kundan-kun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayni lisoniy dolzarbliklarni qondirishda milliy lug‘atchiligimizning rivoji muhim va lug‘atchilik tilshunoslikning amaliy ahamiyati katta tarmog‘i sifatida o‘zida muayyan millatning muayyan davrdagi madaniyatini bor bo‘y-u basti bilan jam qiladi. O‘zbek tilshunosligining 30 yillik taraqqiyot davrida milliy leksikografiyamiz ham son, ham sifat jihatidan barkamollashdi. Bunday takomillashuvning dastlabki natijasi sifatida O‘zR VMning “Davlat tili haqida”gi qonunni amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturi talablari asosida O‘zR FA Til va adabiyot institutida tuzilgan va 2006-2008 yillarda chop etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ni ko‘rsatish joiz. O‘zbek tilining ulkan ifoda imkoniyatlarini o‘zida jamlagan mazkur lug‘atning yuzaga kelishi katta voqea bo‘lgani bor gap. 5 jilddan iborat mazkur lug‘atda ikki jildli izohli lug‘at materiallaridan foydalanilgan bo‘lsa ham, ammo shu lug‘atning to‘ldirilgan yoki qandaydir o‘zgartirishlar kiritilgan nashri emas, balki leksikografiya yutuqlarini hisobga olib tuzilgan yangi lug‘atdir. Unda o‘zbek tili leksikasida yuz bergan o‘zgarishlar, ma’noviy siljishlar e’tiborga olingan. Davr

mafkurasi sabab soʻzlarga, ularning maʼnolariga sunʼiy singdirilgan taʼsirlar olib tashlangan hamda haqiqiy izohini olgan. Lugʻat mualliflari toʻgʻri qayd etganlaridek, avvalgi nashrda “eskirgan”, “diniy” kabi belgilar ostida berilgan yoki umuman berilmagan tarixiy, etnografik, diniy terminlarga shu soʻzlarning semantikasidan kelib chiqib yondashilgan, mustaqillik sharofati bilan qayta faollashgan soʻzlar faol jalb qilingan. Xullas, mazkur leksikografik ish “hozirgi oʻzbek adabiy tilining soʻz boyligini toʻplash va tavsiflash bilan birga, uning meʼyorlarini belgilash va barqarorlashtirish”dek vazifalarni bajargan. Maʼlumki, imlo nafaqat toʻgʻri yozish qonun-qoidalarini belgilaydi, shuningdek, millatni, xalqni birlashtirishdek ijtimoiy-siyosiy vazifani ham bajaradi. Shu sababli savodxonlik masalasini oshirish va imlo borasidagi ishlarni muntazam takomillashtirilib borish maqsadida bir necha hukumat hujjatlarida oʻzbek tilining tovushlar tizimi va uni hisobga olgan holda nutq tovushlarining yozuvda aks etishi, joriy imlo qoidalarini takomillashtirishga qaratilgan hamda ilmiy asoslangan takliflarni tayyorlash, ishlab chiqish lozimligi belgilangan. Istiqloq yillarida shu maqsadga yoʻnaltirilgan imlo lugʻatlari Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, T.Togʻayevlar tomonidan tuzildi. Ushbu lugʻatlar lotin yozuvini oʻrganishda, yoshidan qatʼi nazar, barchaning imlo savodxonligini oshirishda muhim rol oʻynadi. Ammo dastlabki imlo lugʻatlari soʻzligining cheklanganligi nashr-matbaa ishlarida, taʼlimning yuqori bosqichlarida bir qator muammolarni, masalan, zikr etilgan lugʻatlarga kirmagan va oʻzbek tiliga keyinroq kirib kelgan soʻzlarning qanday yozilishiga oid ikkilanishlarni, imlo qoidalarida ochilmay qolgan qoidalar bilan bogʻliq zoʻriqishlarni keltirib chiqardi. Ana shunday amaliy ehtiyojlarni qondirish maqsadida Fanlar akademiyasining Oʻzbek tili, adabiyoti va folklori institutida lugʻatchiligimizdagi eng katta (85 000 dan ortiq soʻz va soʻz shakllari) imlo lugʻati tuzilib, lotin va kirill yozuvlarida nashr etildi. Ushbu lugʻat “oʻzbek tilining hozirda mavjud imlo lugʻatlaridan: a) soʻzligining boyligi; b) imlosi qiyin va munozarali boʻlgan, hozirga qadar imlo lugʻatlariga kiritilmay kelayotgan soʻzlarni ham qamrab olganligi; d) nashr etilgan va etilayotgan boshqa tip lugʻatlar (izohli, ensiklopedik, terminologik va b.)ning ijobiy imloviy tajribalarini hisobga olganligi; e) keyingi oʻttiz yil davomida oʻzbek tili imlosi amaliyotida yuz bergan, koʻpchilik tomonidan maʼqul deb topilayotgan ijobiy imloviy oʻzgarishlarga eʼtibor berganligi; f) nihoyat, mustaqillik

davrida o‘zbek tiliga kirib kelgan yangi so‘z va terminlar yozilish shaklining ilmiy-imloviy baholangan holda lug‘at tarkibiga kiritilganligi bilan farqlanadi”. Ayni imlo lug‘atidagi yana bir muhim jihat shuki, “lug‘atda rus tili orqali kirib kelgan va tarkibida ë, ю, я harflari bo‘lgan ruscha va baynalmilal so‘zlarni yangi imloda barcha o‘rinlarda bir xil, ya’ni yo, yu, ya harflari bilan yozishni ko‘zda tutgan” va shu orqali bunday so‘zlarni yozishdagi harxillik bartaraf etilgan. Etimologiya tilshunoslikning eng murakkab, eng diqqattalab sohasi ekani filolog-mutaxassislarning hech biriga sir emas. Etimologiya so‘zining lug‘aviy ma’nosi ham so‘zning “chin, asl mohiyat” ini o‘rganishdir. Til sinxroniyasidan til diaxroniyasiga ekskursdan iborat ayni sohadagi izlanishlarning naqd natijasi, albattaki, etimologik lug‘atlarda aks etadi. Bu jihatdan ingliz, nemis, rus kabi tillarning etimologik lug‘atlarining tuzilganiga ancha bo‘lgan. Turkiy tillarning umumiy leksik fondiga oid etimologik lug‘at ham o‘tgan asrning 70-yillarida turkologlar tomonidan tuzilgan. Shu ma’noda Sh.Rahmatullayevning o‘zbek lug‘atchiligida dastlabki tajriba sifatida tuzilgan uch jildli “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da tilimizning turli davrlariga oid turkiy, forsiy va arabiy so‘zlarning kelib chiqish tarixi izohlangan. Sh.Rahmatullayev va hammualliflarining dastlabki etimologik kuzatishlari bundan avvalroq, ya’ni 1997 – 1999-yillarda “O‘zbek tilining qisqa etimologik lug‘ati” nomi bilan 4 kitobcha shaklida chop qilingan edi. Muallifning samimiy qaydicha, shu to‘rt kitobni yaxlit holatga keltirish mobaynida manbalar sinchiklab o‘rganilgan, qisqacha etimologik lug‘atda yo‘l qo‘yilgan xatolar bartaraf qilingan, umuman, lug‘at maqolalari qayta ishlangan va uch kitob holiga keltirilgan. Mazkur tadqiqot etimologik talqinlarning ommabop yo‘sinda berilganligi, keng kitobxonlar auditoriyasiga mo‘ljallanganligi bilan ajralib turadi va kelgusida yaratiladigan etimologik lug‘atlarga muhim manba sifatida xizmat qiladi. Mustaqillik davrida ahamiyati jihatidan etimologik lug‘atlarga yaqin turadigan alohida ijodkor asarlari tiliga bag‘ishlangan lug‘atlarni tuzish ishlari davom ettirildi. Hozirgacha Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Muhammadrizo Ogahiy va boshqa mumtoz shoirlarning asarlari tiliga bag‘ishlangan lug‘atlar mavjud. O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida Berdak Yusufov tomonidan tuzilgan va dastlabki jildi chop qilingan “Navoiy tili lug‘ati” muallifining uzoq yillik ilmiy izlanishlari natijasi bo‘lib, muallif bungacha ham maktab Adabiyot darslarida o‘rganiladigan klassik asarlar

tiliga bag'ishlangan "Mumtoz adabiy asarlar lug'ati"ni (Toshkent, 2010) tuzgan edi. "Navoiy tili lug'ati" avvalgi Navoiy asarlari lug'atlaridan so'zligining ko'pligi, leksikografik izohlarining aniqligi, transkripsiyasi berilganligi bilan farqlanadi. "Navoiy tili lug'ati" to'la nashr etilganidan so'ng undan nafaqat Navoiy ijodi, balki eski o'zbek tilida ijod qilgan boshqa ijodkorlarning asarlari tilini o'rganishda ham foydalanish mumkin bo'ladi. Bu davr filologiyasida Bobur ijodini o'rganishga, shoir asarlarining lug'atini tuzishga astoydil kirishildi. Chunki Bobur o'zining sarmazmun, ayni paytda, murakkab hayoti va faoliyatida beqiyos tarixiy va ijodiy meros qoldirgan shaxsdir. Shu jihatdan Fathiddin Is'hoqovning "Boburnoma" uchun qisqacha lug'at'i (Andijon, 2008), mualliflar jamoasining "Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi" (Toshkent, 2014) Bobur shaxsiyati va ijodiyotini anglash yo'lidagi eng yaxshi yumushlardandir. O'zbek tili uch lahjadan kuch olib rivojlanadigan til sifatida boy ifoda imkoniyatlariga ega. Tabiiyki, mazkur lahja va shevalardagi so'zlarni to'plash bilan boy lug'aviy zaxira jamlanadi, erta-indin unutilishi mumkin bo'lgan so'zlarni kitoblarda saqlab qolishga erishiladi. O'z navbatida, shevalar fondi etimologik lug'atlar uchun muhim manba hisoblanadi, etimologik lug'atlarning mukammalashuvini ta'minlaydi, chunki til tarixiga oid faktlar davr o'tishi bilan adabiy leksikadan o'chsa ham, sheva so'zlarida saqlanib qoladi. Mustaqillik yillarida alohida dissertatsiyalarga shevalar so'zliklarini ilova qilish alohida hodisa bo'ldi va buning natijasida salmoqli miqdordagi so'zlar yig'ildi. Shuningdek, To'ra Nafasovning "Qashqadaryo o'zbek xalq so'zlari" (Toshkent, 2011), Bosim To'ychiboyev va Qozoqboy Qashqirining "Zominning til qomusi" lug'atlarida ham qamrov obyektiga oid katta material qamrab olingan. Ularda adabiy tilda muqobili bo'lmagan so'zlar o'ziga xos orfoepik libosda namoyon bo'lgan va bu manbalar asosida bir necha jildli o'zbek shevalari lug'ati tuzilishi zarur. Mustaqillik davri o'zbek leksikografiyasida lug'atchilikning yangi tajribalariga qo'l urildi, lug'atlarning yangi turlari yuzaga keldi. Bunda O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti va oliy ta'lim tashkilotlari tilshunoslari tomonidan bir qancha lug'atlar paydo bo'ldi. Dastavval E.Begmatovning "O'zbek ismlari izohi" (Toshkent, 2016) kitobini esga olmoq o'rinli. Hozirga qadar uch marta nashr etilgan va yoshu qariga beminnat xizmat qilib kelayotgan mazkur lug'atda 14600 ga yaqin o'zbek ismlarining ma'nolari izohlangan. Lug'atdagi

ismlar ma'nosi bilan tanishar ekansiz, o'zbek etnografiyasi, turmush tarzi, diniy e'tiqodi haqida muhim ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Marhum tilshunos Ernst Begmatov o'zbek ismlarining barchasini bir joyga jamlab, ma'nolarini izohlab, keyingi nasllarga katta ma'naviy meros qoldirdi. Istiqlol davri leksikografiyasining taraqqiyoti milliy tilshunosligimizning salmoqli yutuqlaridan suv ichgani rost. Negaki bu davr til ilmida tilga faqat aloqa vositasi deb qarashdan voz kechildi, tilni belgilar sistemasi sifatidagina tushunishning to'g'ri emasligi anglab yetildi. Endilikda til katta milliy-madaniy fenomen tarzida talqin qilinadigan bo'ldi. Lisoniy mohiyatga munosabatning bunday o'zgarishi, tabiiyki, yangi lingvistik xulosalarni paydo qildi va natijada til, avvalo, olam va odamni anglash tarzi sifatida baholana boshladi. Shu ma'noda N.Mahmudov va D.Xudoyberganovanning "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati" (Toshkent, 2013), N.Mahmudov va Y.Odilovning "O'zbek tili enantiosemitik so'zlarining izohli lug'ati" (Toshkent, 2014), D.Xudoyberganova va D.Andaniyozovanning "O'zbek tili poetonimlarining izohli lug'ati" (Toshkent, 2016), D.Lutfullayeva, R.Davlatova va B.Tojiboyevlarning "O'zbek tili assotsiativ lug'ati" (Toshkent, 2019) kabilar yangilangan lingvistik dunyoqarash namunalari. Istiqlol yillarida ta'limiy yoki o'quv lug'atlari ham yaratildi. Masalan, "O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati", "O'zbek tili iboralarining o'quv-izohli lug'ati", "O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati", "O'zbek tilining o'zlashma so'zlar o'quv izohli lug'ati", "So'z variantlarining imlo lug'ati" kabilar. Bunday lug'atlar qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi, chunki ular o'quvchilarning til sezgisini oshiradi, ta'lim oluvchilarga filologik tarbiya beradi. N.Mahmudovning 2016, 2020-yillarda chop etilgan "So'z sandiqchasi: o'zbek tilining izohli lug'atchasi" ham ona tili ta'limi rivojiga salmoqli hissa bo'lib qo'shildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan izohli lug'atning bu ilk namunasi bolalar nutqida ko'p qo'llanadigan 700 atrofidagi so'zni jamlagan. Unda muallif so'z izohlarini murakkablashtirmay, bolalarbop tarzda, lo'nda, ixcham tushuntirgan, lug'at auditoriyasini hisobga olgan holda so'z ma'nolarini dalillovchi misollarni ham bolalar nashrlaridan olgan. Muallifning o'zi ham qayd etganidek, ayni "so'z sandiqchasi" bolalar tilini burrolashtirish, zehni o'tkirlashtirish, fikrini tiniqlashtirishda yordam beradi. Mustaqillik davri leksikografiyasida lingvistik xarakterdagi bir necha lug'atlar tuzildi.

Bunday lugʻatlar sirasida Azim Hojiyevning “Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati” (Toshkent, 2002) juda muhim. Unda oʻzbek tilshunosligida qoʻllanadigan 1700 yaqin terminning maʼnosi tushuntirilgan. Keyinroq bu lugʻat N.Mahkamov va I.Ermatovlarning “Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati” (Toshkent, 2013)ning yuzaga kelishiga zamin hozirladi va shu tarzda mutaxassislar uchun ham, maktab oʻquvchilari uchun ham muhim manba paydo boʻldi. Vaqt toʻxtab turmaganidek, fan ham bir joyda qotib qolmaydi. Fanning rivoji yangi-yangi lugʻatlarni tuzishni taqozo qiladi. Shu jihatdan D.Xudoyberganovanning “Lingvokulturologik terminlarning qisqacha izohli lugʻati” (Toshkent, 2015), A.Madvaliyev va hammualliflarining “Xalqaro terminelementlarning izohli-illustrativ lugʻati” (Toshkent, 2020), R.Shukurovning soʻz variantlariga bagʻishlangan “Oʻquv lugʻati” (Toshkent, 2020), Nafisa Sadinovaning “Ish yuritish terminlarining qisqacha izohli lugʻati” (Toshkent, 2020), N.Mahmudov, Sh.Koʻchimov va N.Sharipovalarning “Yuridik terminlarning ruscha-oʻzbekcha lugʻati” (Toshkent, 2021)ni sohaviy leksikografiyaning jiddiy yutugʻi sifatida baholanadi. Kuzatishimizcha, umumturkiy lugʻatlardan ozuqa olgan holda oʻzbek leksikografiyasi ham mustaqillik davridan beri oʻzining salmoqli lugʻatlari bilan tilimiz boyligini koʻrsatishga xizmat qilmoqda. Lekin bu sohadagi ishlar shu bilan toʻxtab qolmaydi. Til rivojlanar ekan uning lugʻat fondi ham rivojlanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Фаттоҳов Х. Луғатчилигимиз тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти.- Тошкент,1982.-№2. - Б.53.
2. Миртожиев М.М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. - Тошкент: Фан, 2000.
3. Нормаматов С. Ўзбек луғатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жаҳид маърифатпарварларининг ўрни: Филол фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019.
4. Ҳамидов З. Луғатшунослик тарихи ва қўлёзма луғатлар. -Тошкент: Адолат, 2004.
5. Ўзбек тили лексикологияси. - Тошкент: Фан, 1981.